



“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti



FAN:

“MASHINA TRAKTOR AGREGATLARI  
ISH UNUMINI BOSHQARISH”

MAVZU  
**18**

Haydov mashina traktor aggregatining  
ish unumini aniqlash



IGAMBERDIYEV ASQAR KIMSANOVICH  
texnika fanlari doktori, professor



Mashinalardan foydalanish va  
ta'mirlash kafedrasи mudiri



## Reja:

1. Umumiy tushunchalar.
2. Haydov agregati ish unumining modellari.
3. Haydov agregati ish unumini hisoblash.

# Мавзу бўйича билим савиясини баҳолаш

## Тушунчалар

**Таянч иборалар:**

1. Ҳайдов агрегати иш үнуми, қамров кенглик, ҳаракатланиш тезлиги, ишлов берилган майдон, иш үнмини ошириш тадбирлари, инновацион ечимлар.

## Назорат саволлари

1. Mashina traktor agregatlarining ish unumini oshirishning innovatsion echimiga misol keltiring.
2. Mashina traktor agregatlarining ish unumi qanday parametrlarga bog'liq?

**Биламан**

(дарс бошида ёзилади)

**Билишни хоҳлайман**

(дарс бошида ёзилади)

**Билиб олдим**

(дарс охирида ёзилади)

## Umumiy tushunchalar

**Energiya va quvvat vositalari hisoblangan traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalari dunyodagi aksariyat fermerlarning ishini engillashtiradigan ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Shunga ko'ra fermerlar ehtiyojlariga mos ravishda traktor va qishloq xo'jaligi mashinasini tanlaydi, sotib oladi va ulardan foydalanadi.**

**Ma'ruzaning maqsadi:** Talabalarga haydov agregatlarining tuproqqa asosiy ishlov berishdagi nazariy va haqiqiy (foydalanishdagi) ish unumlarini aniqlashning o'ziga xos hususiyatlarini o'rgatish hamda ularning miqdorlarini tahlil qilish bo'yicha bilimlar berish.

## Umumiy tushunchalar

Mahsulot ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish, mashina-traktor agregatlaridan foydalanish, ularni ish unumini boshqarish va samaradorligini oshirish uchun qishloq xo'jaligiga oid qonunlarni bilish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga rahbarlik qilishning ilmiy asoslarini chuqr egallash kerak bo'ladi.


Ma'lumki, texnologik operatsiyani (Masalan: shudgorlashni) bajarish vaqtida mashina-traktor agregat to'g'ri chiziq bo'ylab aniq harakatlanmasligi, traktorninng shataksirashi, salt yurishlari, texnologik va texnik xizmat ko'rsatishda to'xtab turishi va boshqa sabablarga ko'ra uning haqiqiy ish unumi hazariy ish unumiga nisbatan farq qiladi.

## Umumiy tushunchalar

Mashina-traktor agregatining nazariyasi va amaliyotida asosan aggregatning soatlik nazariy, smenali nazariy va haqiqiy hamda kunlik ish unumidan ko'proq foydalaniladi. Ish unumini amaliy jihatdan o'rganish – bu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, maqbul omillarni tanlash bo'yicha talabaga asoslangan tavsiyalar berish imkonini beradi.

Tuproqqa asosiy ishlov beradigan mashina-traktor aggregatlarining ish unumi - uning konstruktiv qamrash kengligi ( $B_k$ ), nazariy harakat tezligi ( $v_t$ ), vaqtadan sof (to'liq) foydalanilgangi ish unumiga aytiladi va ish unumi gektarda o'lchanadi

# Haydov aggregatining sxemasi




**Amaliyotda asosan dalaning ishlov berilgan yuzasi bo'yicha ish unumlaridan ko'proq foydalaniladi (1-rasm).**



**1-rasm. Ag'darma plugli mashina-traktor aggregatining dala matdoni bo'yich borib-kelishdagi shudgorlash jarayoni**

# Haydov aggregatining dalada (pykalda) harakatlanish sxemasi



## Haydov agregati ish unumining modellari

Nazariy, texnikaviy va ekspluatasion ish unumlarini aggregatning parametrlari bilan bog'lovchi analistik ifodalar chiqarish ish unumi nazariyasining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, haydov agregati tuproqqa  $B_k$  kenglikda va  $h$  chuqurlikda tuproqni ag'darib ishlov beradi.

Shu bois aggregatning ishlov berilgan tuproq hajmi orqali ifodalangan soniyaviy ish unumi formulasini chiqaramiz

## Haydov agregati ish unumining modellari

Plugning konstruktiv qamrov kengligi  $B_k$  (m), ishlov berish chuqurligi  $h$  (sm), aggregatning nazariy ish tezligi  $V_{naz}$  (km/soat) berilgan bo'lsin. Bu holda aggregatning soniyaviy ish unumi quyidagicha yoziladi:

$$W_s = B_k \cdot h \cdot V_{naz} \quad (1)$$

(1)Formulaga parametrlarning birliklarini qo'ysak,

$$m \cdot sm \cdot \frac{km}{soat} = m \cdot 10^{-2} m \cdot \frac{1000}{3600} \cdot \frac{m}{sek} = \frac{1}{360} \left[ \frac{m^3}{sek} \right]$$

$$W_s = \frac{1}{360} B_k \cdot h \cdot V_{naz} \left[ \frac{m^3}{sek} \right] \quad (2)$$

Demak,

## Haydov agregati ish unumining modellari

Misol ko'ramiz. T-4A-S4 zanjirli traktor PYA-3-35 ikki yarusli tirkama plugdan iborat haydov agregati uchun  $V_k=1,05$  m,  $h=35$  sm va  $V_a=6$  km/soat bo'lsin. Bu parametrlarni yuqordagi (2) formulaga qo'ysak

$$W_s = \frac{1}{360} B_k \cdot h \cdot V_{naz} = \frac{1}{360} \cdot 1,05 \cdot 35 \cdot 6 = 0,6125 \left[ \frac{m^3}{sek} \right]$$

## Haydov agregati ish unumining modellari

Demak, mazkur agregatni 1 sekundda  $0,6125 \text{ m}^3$  hajmdagi tuproqqa ishlov berishi mumkinligini bildiradi.

Lekin bu qiymatni xronometraj yo'li bilan aniqlab, tekshirib bo'lmaydi.

Faqat axborot uchun yuqoridagi parametrlarda agregat 1 sekundda  $0,6125 \text{ m}^3$ , 1 minutda  $0,6125 \times 60 = 36,75 \text{ m}^3$ , 1 soatda  $36,75 \times 60 = 2205 \text{ m}^3$  1 smenada (7 soatda)  $2205 \times 7 = 15435 \text{ m}^3$  tuproqqa ishlov berish mumkinligini bilsak bo'ldi.

## Haydov aggregatining ishlov berilgan maydon yuzasiga bog'liq ravishda 1 soatlik ish unumi

$$W_s = 0,1 \cdot B_k \cdot V_{naz} [\text{ga / soat}] \quad (3)$$

Ushbu (3) formuladan ko'rinib turibdiki, haydov aggregatining nazariy ish unumi plugning konstruktiv qamrov kengligi ( $V_k$ ) va aggregatning nazariy ish ( $V_n$ ) tezligiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Agar haydov aggregatining yuqoridagi parametrlarini va smena vaqtini 7 soat deb qabul qilsak, u holda 1 smenalik nazariy ish unumi quyidagi qiymatga ega bo'ladi.

$$W_{sm} = 0,1 \cdot B_k \cdot V_{naz} = 0,1 \cdot 1,05 \cdot 6 \cdot 7 = 4,41 [\text{ga / smena}]$$

## Agregatning ekspluatasion ish unumi

Agar aggregatning ekspluatasion ish unumini aniqlamoqchi bo'lsak formula quyidagicha bo'ladi


$$W_{ek} = W_{sm} \cdot \tau$$

Bu erda  $\tau$  – ekspluatasion vaqtdan foydalanish koeffisienti.

Agar  $\tau = 0,7$  deb qabul qilsak, u holda aggregatning ekspluatasion ish unumi quyidagi qiymatga ega bo'ladi

$$W_{ek} = W_{sm} \cdot \tau = 4,41 \cdot 0,7 = 0,087 [ga]$$

# Mashina traktor agregati ekspluatatsion ish unumining smena vaqtidan foydalanish koeffisientiga nisbatan o'zgarish grafiklari



## Mashina traktor agregatlarning ish unumini oshirish tavsiyalari:

Agregatlarning ish unumini oshirishni yuqori smenaviy ish unumiga erishish (agregatlarni to'g'ri tuzish, traktor quvvati va mashinaning qamrov kengligidan to'la foydalanish, texnologik to'xtashlar, salt yurishlar, tuzatishlar va texnik xizmatga sarflanadigan vaqtlarni keskin qisqartirish, agregatlarni sutka davomida foydalanish vaqtini uzaytirish (mashinalarni 14-21 soat 2 va 3 smenada ishlatish), mashinalardan mavsum davomida to'la foydalanish, mashinalar parkini yuklanish darajasini oshirish yo'li bilan amalga oshirish mumkinligi adabiyotlarda tavsiya etiladi.

## Adabiyotlar:

1. Игамбердиев А.К., Алиқұлов С. Тракторлар ва қишлоқ хұжалик машиналаридан фойдаланиш, техник сервис. Тошкент, ТИҚХММИ, 2020.-286 б.
2. Игамбердиев А., Алиқұлов С. Машиналарнинг техник самарадорлиги. Тошкент, ТИҚХММИ МТУ., 2021.-100-б.
3. Иофинов С.А., Лышко Г.П. Машина-трактор паркидан фойдаланиш. М.: Колос. 1984
4. Наумов Ю.И. Машина-трактор паркидан фойдаланиш. Т. Мехнат. 1986
5. Иофинов С.А., Бабенко Э.П., Зуев Ю.А. Машина-трактор паркидан фойдаланишга оид справочник. Т.: Мехнат, 1986.



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti**



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



IGAMBERDIEV ASQAR  
KIMSANOVICH



Mashinalardan foydalanish va  
ta'mirlash kafedrasi mudiri



+ 998 71 237 05 86



[asqar1959@mail.ru](mailto:asqar1959@mail.ru)



asqar59 +99894 641 24 98